

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020. YU.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

XAYDAROV MANSUR MAXMUDJONOVICH

**DASTLABKI TERGOVDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI
NATIJALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023 yil

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук
(PhD) по юридическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of doctor of philosophy (PhD) on legal
sciences**

Xaydarov Mansur Maxmudjonovich

Dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish.....3

Хайдаров Мансур Махмуджонович

Совершенствование использования результатов оперативно-розыскной деятельности на предварительном следствии.....25

Khaydarov Mansur Makhmudjonovich

Improving the use of the results of operational investigative activities in the preliminary investigation.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020. YU.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

XAYDAROV MANSUR MAXMUDJONOVICH

**DASTLABKI TERGOVDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI
NATIJALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.PhD/Yu127 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti (www.mgju.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mirazov Davron Miragzamovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **O‘razaliyev Murod Karayevich**
yuridik fanlar doktori, professor

Karimov Vahobjon
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**
Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020 Yu.74.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “_____” _____ soat____:____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (manzil: 100211, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: 99-871-230-32-71; faks 99-871-230-32-50; Jxu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (manzil: 100109, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: 99-871-230-32-71; faks 99-871-230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_____” _____kuni tarqatildi.

(2023 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

M.B.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

K I R I SH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikning xavfli va o'ta og'ir shakllarini kengayib borayotganligi, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llagan holda sodir etilayotgan transchegaraviy va transmilliy jinoyatlar ko'lamining keskin ortishi kuzatilmoqda. Zamonaviy jinoyatchilik professionallik, uyushganlik, jinoyat izlarini yashirishning yangi usullarini qo'llash, jinoyat sodir etishda fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish bilan ajralib turadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 2021 yilda 2019 yilga nisbatan og'ir turdagi jinoyatlari soni 303.21 %ga (o'ta og'ir turdagi jinoyatlar 169,17 %ga) oshgan¹ligi og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish, ularni tergov qilishda tipik tergov tasmollari, vaziyatlar va ularni tekshirish xususiyatlarining algoritmini ishlab chiqish, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatiga zamonaviy innovatsion, raqamli texnologiyalar va ilg'or ish usullarini joriy etish, og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, tezkor xizmatlar hamda surishtiruv va tergov organlarining xamkorligini mustahkamlash kabi masalalarga hanuzgacha yechim topilmaganligi tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat ishlari b uyicha isbotlashda foydalanishning o'rni va roli, uning ahamiyatini oshirish zarurligidan dalolat beradi.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoiy holatlarni isbotlashning zamonaviy usul va metodlarini qo'llash, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari, shuningdek qonuniy manfaatlarini ta'minlash, muayyan turdagi jinoyatlarni tergov qilishning zamonaviy uslublarini rivojlantirish kabi muhim vazifalarning yechimi ustida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bugungi kun amaliyotining ob'ektiv baholanishi va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda jinoyatlarni tergov qilishda tezkor-qidiruv imkoniyatlari, uning natijalaridan foydalanish institutini rivojlantirish, jinoiy ishlarni isbotlashda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi asosida sud-huquq tizimini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklariga rioya etilishini hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashning to'g'ri tashkil etilishi, jinoyatlarni oldini olish va fosh qilish, jinoyat sodir etgan shaxslar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, bu boradagi barcha kuch va vositalarni ishga solish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish kabi bir qator tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Bu holat jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan

¹ IIV jinoiy-huquqiy statistikasi materiallari

unumli foydalanish va ularni tartibga soluvchi qonunchilik normalari va qonunni qo'llash amaliyotini chuqur va tanqidiy o'rganilishi zarurligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), «Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida»gi (2012), «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi (2016), «O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida»gi (2020), «Prokuratura to'g'risida»gi (2001) qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi PF-6041-son «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari hamda 2018 yil 14 maydagi PQ-3723-son «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari doimo milliy va xorijiy olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan G.A.Abdumajidov, B.A.Azizxodjayev, B.T.Akramxodjayev, L.I.Astanova, D.B.Bazarova, A.K.Zakurlayev, Sh.Inomjonov, Z.F.Inog'omjonova, V.G.Karimov, A.A.Matchanov, D.M.Mirazov, B.A.Mirenskiy, B.B.Murodov, F.M.Muxitdinov, Yu.S.Pulatov, B.X.Po'latov, A.Polvonov, B.A.Rajabov, B.N.Rashidov, M.X.Rustambayev, T.R.Saitbayev, G.Z.Tulaganova, X.A.Turabbayev, U.A.Tuxtasheva, N.I.Xayriyev, A.A.Xamdamiy va N.M.Qo'shayevlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

MDH davlatlari olimlaridan D.I.Bednyakov, A.I.Vinberg, A.V.Grinenko, N.A.Gromov, Ye.A.Dolya, V.V.Yershov, V.M.Zajiskin, S.A.Zayseva, S.I.Zaxarsev, A.V.Zemskova, L.M.Zeynalova, V.K.Znikin, N.P.Kuznesov, P.A.Lupinskaya, B.A.Mirenskiy, V.I.Roxlin, V.A.Semensov, N.P.Sareva¹ va boshqalar o'z ilmiy ishlarida tezkor-qidiruv faoliyatining natijalaridan foydalanishning turli jihatlarini o'rganganlar.

Xorijiy olimlardan A.Veyngardt, R.Geyndl, V.Shtiber, G.Shneykert va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida tezkor-qidiruv faoliyatining natijalaridan foydalanishning turli jihatlarini o'rganganlar.

Ta'kidlash joizki, Sh.I.Inomjonov tomonidan «Jinoyat protsessida dalillar taqdim qilish va foydalanishning muammolari» mavzusida yuridik fanlar bo'yicha

¹Bu va boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

nomzodlik dissertatsiyasida (2003) tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish masalalari ilgari amalda bo'lgan qonunchilik asosida o'rganilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan amalga oshirilgan islohotlar, amaldagi qonunchilik va uni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi, jinoyatlarning soni va turlari ko'payib, sodir etishning usullari kengayib borayotganligi, buning negizida tezkor qidiruv faoliyatining natijalaridan foydalanishda tergov qilish metodikasini takomillashtirish muammolarini maxsus tadqiq etish zaruriyati mavjudligi isbotlanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universitetining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish» nomli loyixa doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning ijtimoiy zaruriyati va nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;

jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini taqdim etish va foydalanishning protsessual tartibga solinishini tadqiq etish;

jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishining xorij tajribasi tahlili;

tergovga qadar tekshiruv o'tkazishda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish xususiyatlarini o'rganish;

surishtiruv va dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni o'rganish;

jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda shaxs huquqlariga rioya etish va ta'minlashini tadqiq etish;

jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish va tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish institutini yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti O'zbekistonda dastlabki tergovda tezkor qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tezkor-qidiruv faoliyati natijalari, ulardan foydalanishga oid normativ-huquqiy xujjatlar, ularni qo'llash bilan bog'liq tergov va tezkor-qidiruv organlarining faoliyati, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida ilmiy bilishning umumiy (mantiqiylik, deduksiya, induksiya, tahlil, qiyoslash, modellashtirish, tahlil, sintez, umumlashtirish, kuzatish), xususiy (tarkibiy-

sistematik, funksiyaviy, statistik, psixologik, tarixiy) va maxsus-sohaviy (qiyosiy-huquqiy, jinoyat ishlarining tahlili, sotsiologik so‘rov) kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

tezkor-qidiruv faoliyatining natijalari faqat jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga muvofiq to‘plangan, tekshirilgan va baholanganidan keyingina dalil maqomiga ega bo‘lishi va isbotlashda foydalanilishi mumkinligi asoslangan;

gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko‘rsatuvlar olish mazkur jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan amalga oshirilishi shartligi asoslantirilgan;

dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash orqali olingan dalillardan foydalanish ta‘qiqlanishi asoslantirilgan;

jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyatlarni fosh etish, jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash uchun tezkor-qidiruv organlarining o‘z vakolatlari doirasida o‘tkazilgan tezkor-qidiruv faoliyati natijalari tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovda foydalanishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyat-protsessual isbotlashda tezkor-qidiruv faoliyati natijalari JPK normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyingina dalil sifatida foydalanishi mumkinligi asoslab berilgan;

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko‘rsatuvlar olishda jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan amalga oshirilishi shartligi asoslab berilgan;

tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash orqali olingan dalillardan foydalanish ta‘qiqlanishi asoslab berilgan;

tezkor-qidiruv organlarining o‘z vakolatlari doirasida o‘tkazilgan tezkor-qidiruv faoliyati natijalari jinoyatchilikka qarshi kurash yo‘nalishida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovda foydalanishi lozimligi asoslab berilgan;

tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini isbotlashda foydalanish masalalarini ilmiy o‘rganish natijasida shakllangan ilmiy xulosalar qonun ijodkorligi jarayonida, tezkor-qidiruv faoliyati sub’ektlarining idoraviy normativ-huquqiy qoidalarini ishlab chiqishda, o‘quv va o‘quv qo‘llanmalarini yozishda, darsliklar va tavsiyalarni ishlab chiqishda, oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida tezkor xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishda qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan isbotlashda foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar tezkor-qidiruv faoliyatini olib borishning taktikasi va usullari samaradorligini oshirishda, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish uchun tezkor xodimlar va umuman tezkor bo‘linmalar ishini jadallashtirishda foydalanilishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan foydalanilgani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, taklif va tavsiyalar 531 nafar tezkor va tergov organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga asoslangani, 100 dan ortiq jinoyat ishlari bo'yicha sud hukmlarining tahlili, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Izlanishda muallifning tergovchi, JQB tezkor vakili va surishtiruv organi boshlig'i lavozimlaridagi 14 yillik amaliy tajribasi materiallaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy taklif hamda tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek «Tezkor-qidiruv faoliyati», «Tezkor-qidiruv huquqi», «Tergovga qadar tekshiruv», «Jinoyat-protsessual huquq», «Surishtiruv» va «Dastlabki tergov» fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif, tavsiya va xulosalaridan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan dastlabki tergov va tezkor-qidiruv organlari tomonidan jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va tergov qilishda jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamda qonunni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat ishlari bo'yicha isbotlashni amalga oshirishda foydalanish hamda mazkur faoliyatni huquqiy tartibga solishga qaratilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan, Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyingina dalil sifatida tan olinishi mumkinligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2021 yil 18 fevralda qabul qilingan O'RQ-675-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 88-modda 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitasining 2021 yil 23 apreldagi 05/1-01-81-son ma'lumotnomasi). Bu taklif tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan isbot qilishda foydalanishda jinoyat protsessi ishtirokchilarining shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilinishi va kafolatlanishiga xizmat qilgan;

gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar olish mazkur jinoyat ishi o'z yurituvida bo'lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan amalga oshirilishi tartibiga oid takliflaridan O'zbekiston

Respublikasining «Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2021 yil 18 fevralda qabul qilingan O'RQ–675-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 39²-modda 6-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitasining 2021 yil 23 apreldagi 05/1-01-81-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning qabul qilinishi jinoyat ishlari bo'yicha shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash darajasini oshirilishiga xizmat qilgan;

dastrabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishda shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash orqali olingan dalillarda foydalanish ta'qiqlanishi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2021 yil 18 fevralda qabul qilingan O'RQ–675-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 88-modda 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitasining 2021 yil 23 apreldagi 05/1-01-81-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi gumon qilinuvchilarni ushlab turish vaqtida qonuniy huquqlari va manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish uchun innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning protsessual tartibi takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

tezkor-qidiruv tadbirlarining natijasida jinoyatga oid ma'lumotlar aniqlanganligi jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'lishi to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Jinoyat-protsessual Kodeksi loyihasini 33-moddaning birinchi qismi to'rtinchi bandining ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023 yil 22 fevraldagi ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning ro'yobga chiqarilishi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijasida jinoyatga oid ma'lumotlar aniqlanganida, holat yuzasidan tegishli tartibda jinoyat ishi qo'zg'atilishiga huquqiy asos yaratilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 9 ta (3 ta xalqaro, 6 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzui bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta ilmiy maqola (shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiya ishining asosiy matni 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi,

dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning nazariy-huquqiy tahlili**» deb nomlangan bo'lib, unda jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning ijtimoiy zaruriyati va huquqiy asoslari, jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning protsessual tartibga solinishi, jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning xorij tajribasi o'rganilgan.

Tezkor qidiruv faoliyatini jinoyat protsessida foydalanishning protsessual tartibi va usullari, ham nazariya, ham qonun, ham amaliyotda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, tezkor qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat ishlarida dalil sifatida foydalanish muammosi ko'p yillar davomida olimlar va amaliyotchilar orasida dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur masala yuzasidan yurtimiz olimlaridan – F.M.Muxitdinov, Yu.S.Pulatov, B.A.Azizxodjaev, A.Po'latov, Sh.Inomjonovning fikrlari tahlil qilingan va munozaraga kirishilgan. Zamonaviy sharoitda jinoyat ishlari bo'yicha isbotlashni amalga oshirish va aybdorlarni fosh etish faoliyatini faqat jinoyat-protsessual vositalar va usullar bilan amalga oshirish juda qiyin, ba'zan esa imkonsiz bo'lib qolmoqda. Jinoyatchilar jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni toptagan holda, ochiqdan-ochiq va yashirin harakat qiladi, shuningdek o'z jinoiy maqsadlariga erishish maqsadida qonunchilikdagi bo'shliqlardan faol foydalanishmoqda. Shu sababli uyushgan va guruhij jinoyatlarini fosh etish uchun dastlabki tergovda isbotlashni faqat oshkora va JPKda tartibga solingan jinoyat-protsessual usullarga tayanib amalga oshirib jinoyatchilarning aybini fosh etish juda qiyin. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda TQF huquqni muhofaza qilish organlariga isbotlashda qator imkoniyat va afzalliklarni beradi, xususan, tezkor qidiruv tadbirlari o'tkazish, mazkur faoliyatning qat'iy maxfiylik sharoitida amalga oshirish o'zining samarasini beradi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning ichki buyruqlari bilan tezkor-qidiruv ishlari tashkil etilishi tartibga solingan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmon va qarorlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, vazirlik va idoralarining idoraviy hujjatlarida tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi normalar, tezkor xizmatlarning vazifalari, tezkor tadbirlarni o'tkazish usullari va boshqalar mavjud bo'lsa-da, tezkor-qidiruv idoralari zimmasiga yuklatilgan qator tezkor vazifalar va tadbirlar faqatgina xizmatga oid idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinishi bois, ushbu faoliyatning qonuniy asoslari yetarli darajada ta'minlanmagan.

TQF protsessual va protsessual bo'lmagan faoliyatlarning majmuidan tashkil topadi. U nafaqat tergov harakatlarini yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni o'z ichiga oladi, balki ma'lumot olish, undan foydalanish, protsessual va tezkor-qidiruv qarorlarni qabul qilish va TQT o'tkazishni ham o'z ichiga oladi. TQFda,

hatto bitta tezkor-qidiruv tadbiri amalga oshirilganda, aniq tezkor-qidiruv vazifasini hal etishga erishish mumkin. Shu bilan birga, natijada jinoyat haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi, bu jinoyat ishini qo'zg'atish, aniq bir tergov harakatlarini yoki ularning to'liqligini o'tkazish uchun yetarli bo'lishi mumkin, ammo bunday ma'lumotlar jinoyat protsessida doimo yoki darhol ishlatilmaydi. Biroq, TQFning barcha natijalari har doim ham ishonchli va maqbul deb tan olinishi mumkin emas, chunki ular boshqa ma'lumotlar yordamida tekshirilishi lozim. Tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazmasdan va tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanmasdan, jinoyat ishini dalillar yordamida hal qilish uchun muhim bo'lgan faktlar va holatlar majmuini aniqlash aslida imkonsizdir.

O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari tezkor xizmat hujjatlarida aks etadi. Amaliyotda ularning ayrimlari tezkor-qidiruv tadbirlari bayonnomalari deb nomlanadi. Tabiiyki, bu hujjatlarning yuridik tabiati mustaqil dalil turlaridan biri bo'lgan tergov va sud harakatlari bayonnomalaridan tubdan farq qiladi.

Jinoyat ishini hal qilish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar va faktlarni bevosita idrok etish natijalari, shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari bayonnomalarini ham tashkil qiladi. Biroq, bu bevosita idrok etish jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan hamda tergov va sud xarakatini o'tkazish chog'ida emas, balki tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish davomida yuz beradi. U va bu bayonnomalarni tuzuvchi sub'ektlar o'rtasida ham farq bor.

TQF natijalari ularning jinoyat ishini isbotlash jarayonida foydalanilishi nuqtai nazaridan TQF to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish, uni tayyorlayotgan yoki sodir etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek jinoyat ishiga tegishli boshqa holatlarni o'z ichiga oladi.

Muallifning fikricha, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning xorijiy tajribasini o'rganmasdan turib jinoyatchilikka qarshi kurashni rivojlantirish haqida fikr yuritish qiyin. AQShda jinoyat protsessida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish uchun jinoyat-protsessual qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etadi, bu yerda tezkor-qidiruv faoliyati va tergov harakatlari o'rtasida aniq bo'linish yo'q. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv faoliyati va tergov harakatlarini davlat organlarining yagona mansabdor shaxsi «detektiv» amalga oshiradi. Buyuk Britaniyada 2000 yilda tezkor-qidiruv qonunchiligini tartibga soluvchi hujjat, ya'ni «Tezkor-qidiruv vakolatlarini tartibga solish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan bo'lib, u ba'zi inson huquqlarini cheklaydigan tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga solish va amalga oshirish tartibini belgilab bergan. Germaniyada ham insonning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi tezkor-qidiruv faoliyati faol olib boriladi, politsiya tomonidan quyidagi, jumladan, kuzatuv orqali ma'lumotlarni to'plash, fotosuratlar va chizmalar tayyorlash uchun maxfiy texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash, suhbatlarni tinglash va yozish uchun maxfiy texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash, politsiya bilan hamkorlik uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lmagan shaxslarni rivojlantirishga kirish orqali ma'lumotlarni to'plash, politsiya nazorati kabi tadbirlarni o'tkazish tartibi tartibga solinishi belgilangan. Fransiyada ham tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi yagona qonun ham mavjud emas. Tezkor-qidiruv tadbirini yoki bir nechta faoliyatni huquqiy tartibga solish mustaqil qonunlar bilan amalga oshiriladi. Masalan,

telekommunikatsiya xabarlarini nazorat qilish tartibi 1991 yil 10 iyuldagi 91-646-sonli qonun bilan tartibga solinadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni qisqacha ko'rib chiqilishi yakunida rivojlangan xorij davlatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya)da tezkor-qidiruv tadbirlarining qonuniyligi va asosligini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan ushbu davlatlarning maxsus qo'mitalari, komissiyalari va mansabdor shaxslari hamda parlament nazorat qilishi aniqlandi.

MDH mamlakatlarida (Rossiya, Belarus, Tojikiston va Qozog'iston) inson huquqlarini cheklaydigan tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma sud tomonidan emas, balki prokuror tomonidan beriladi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlarning qonunchiligini o'rganish jarayonida fosh etilmagan jinoyatlarni muvaffaqiyatli oshkor qilish va tergov qilish faqat asosiy vositalar bilan bir qatorda dastlabki tergovning mazmunini, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatining o'ziga xos vositalari va usullarini tashkil etuvchi protsessual vositalar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Aksariyat hollarda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish samaradorligi, jinoyat ishlarini isbotlashda uning natijalaridan foydalanish jinoyatlarning oshkor etilish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertant, tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog'liq muammolarni, xususan tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan foydalangan holda, shuningdek tezkor-qidiruv organlari tomonidan uyushgan jinoyatchilikning har qanday shakliga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni kuchaytirmasdan ushbu vazifalarni amalga oshirish mumkin emas, degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning «**Jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish amaliyoti tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida tergovga qadar tekshiruv o'tkazishda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan.

Dissertantning fikricha, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat-protsessual faoliyatda foydalanishning asosiy usuli - bu TQFning natijalarini shakllantirish, qayta ishlash va taqdim etishdir. Dalillarga baho berishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la va har tomonlama va xolisona ko'rib chiqadi. Ular qonunga asoslangan holda va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Demak, dalil to'g'risidagi tasavvur faqat isbotlashning so'nggi bosqichi uchun amal qiladi, ammo dastlabki bosqichida, ularni tekshirish va baholashdan oldin, dalillar har doim faktlar to'g'risida ma'lumot sifatida maydonga chiqadi. Ta'kidlash kerakki, hozirga qadar tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan jarayonlarni protsessual ravishda ifodalaydigan to'liq yagona ta'rif shakllantirilmagan. Shu bilan birga, nazariyada ham, amaliyotda ham turli huquqiy tabiatga ega bu ikki tizimning kuch va imkoniyatlarini qanday qilib maqbul, samarali va qonuniy asosda birlashtirish masalasi bo'yicha yagona fikr yoki yondashuv mavjud emas. Amaliyotni o'rganish natijasida tezkor-qidiruv va sudga qadar protsessual faoliyatning yagona maqsadga erishish yo'lida yaqinlashishi

o‘rniga, avvalgi davrlar bilan taqqoslaganda, ularning huquqiy va tashkiliy-taktik jihatdan ajralib ketishi ko‘proq ko‘rinmoqda, bu esa o‘z-o‘zidan jinoyatchilikka qarshi kurashishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar jinoyat protsessida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida ishtirok etadi. Bu tezkor-qidiruv faoliyatining jinoyatlarni ochish va tergov qilishda ishtirokning o‘ziga xos protsessual shakli deyish mumkin.

Shu bilan birga, muallifning fikricha, tergovchining tezkor-qidiruv organi bilan o‘zaro xamkorligini amalga oshirishda bir qator muhim shartlarga rioya etilishi shart:

- jinoyat-protsessual qonuni, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, qonun osti normativ-huquqiy hujjatlari va tergov odobi talablariga qat‘iy rioya etgan holda amalga oshirilishi;

- tergov rejasi va jarayoni bilan (maqsadlari, joyi, vaqtiga ko‘ra) muvofiqlashtirilishi;

- tergovning barcha bosqichlarida tergovchining rahbarlik va yo‘naltiruvchi rolini ta‘minlaganligi;

- tergov va tezkor-qidiruv ishining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘zaro yordam ko‘rsatishga asoslanishi;

- o‘zaro tezkor-qidiruvning konfidensiyalligi va tergov siriga qat‘iy rioya etishi shart.

TQF natijalaridan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) o‘zaro xamkorlik sub‘ektlari o‘rtasida birgalikdagi vazifalarni yechish uchun tergov va tezkor-qidiruv ahamiyatiga molik axborotni o‘z vaqtida almashish;

- 2) tezkor-qidiruv organi tomonidan qo‘shimcha tergov qilishni talab etadigan jinoyatni qaynoq izlari bo‘yicha aniqlash, darhol jinoyat ishi qo‘zg‘atish va ish bo‘yicha surishtiruvni boshlash, ishni tergovchiga o‘z vaqtida topshirish (JPK 322-m. 1-q. 4-b.) va so‘ng ushbu ish bo‘yicha birgalikda harakatlarni bajarish;

- 3) ayrim tergov harakatlari va kriminalistik operatsiyalarni bajarishda tergovchiga ko‘maklashish;

- 4) tergovchining tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish va ayrim tergov harakatlarini bajarish to‘g‘risidagi yozma topshiriqlari va talablarini o‘z vaqtida, to‘liq va aniq bajarish (JPK 36-m.);

- 5) jinoyatni fosh etish va tergov qilish vazifalarini samarali hal qilish uchun jinoyat ishi bo‘yicha tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari rejasini birgalikda tuzish (yoki ushbu rejalarni kelishish);

- 6) doimiy yoki vaqtinchalik ishlayotgan tergov va tezkor-qidiruv guruhleri va tergov brigadalari doirasida birgalikda faoliyat olib borish;

- 7) boshlangan jinoyatni to‘xtatish va tayyorlanayotgan jinoyatning oldini olish uchun tegishli choralarni birgalikda ishlab chiqish;

- 8) tergov qilinayotgan jinoyat bo‘yicha o‘zaro aloqaga idoralararo xizmatlar ko‘rsatish, tegishli tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalariga birgalikda baho berish hamda o‘tkazilgan muhokama natijalariga ko‘ra qo‘shma qarorlar qabul qilish.

Hozirga qadar tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan jarayonlarni protsessual ravishda ifodalaydigan to'liq yagona ibora shakllantirilmagan. Shu bilan birga, nazariyada ham, amaliyotda ham turli huquqiy tabiatga ega bu ikki tizimning kuch va imkoniyatlarini qanday qilib maqbul, samarali va qonuniy asosda birlashtirish masalasi bo'yicha yagona fikr yoki yondashuv mavjud emas. Amaliyotni o'rganish natijasida tezkor-qidiruv va sudga qadar protsessual faoliyatning yagona maqsadga erishish yo'lida yaqinlashishi o'rniga, avvalgi davrlar bilan taqqoslaganda, ularning huquqiy va tashkiliy-taktik jihatdan ajralib ketishi ko'proq ko'rinmoqda, bu esa o'z-o'zidan jinoyatchilikka qarshi kurashishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan ma'lumotlarni kelib chiqishi bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1) tezkor-qidiruv tadbirini amalga oshirish uchun rasmiylashtirilgan hujjatlar (ixtiyoriy taqdim qilish bayonnomasi yoki ushlab turish yoxud olib qo'yish bayonnomasi);

2) jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirayotgan tergovchiga ushbu materiallarni topshirish to'g'risidagi qaror va aloqa xati;

3) ushbu tezkor-qidiruv tadbiri ishtirokchilarining ular kuzatgan jinoyat holatlari to'g'risidagi ko'rsatuvlari.

Tergovchi, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari bilan materiallarni olib, jinoyat alomatlarini haqida ma'lumot mavjudligiga ishonch hosil qilib, darhol jinoyat ishini qo'zg'atadi va zarur tergov harakatlarini amalga oshiradi.

Muallifning fikricha, *jinoyatlarni tergov qilishda TQF natijalaridan foydalanish bir nechta bosqichdan* iborat:

Birinchi bosqich - kerakli materiallarni talab qilib olish va ularni jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi bilan asosan mos keladi. Bunday tekshiruvni tergovchi ko'pincha tezkor xodimlar bilan birga o'tkazadi. Bunda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish o'tkazilishi mumkin va unda tergovchiga tezkor xodimlar faol yordam ko'rsatadi. Ular hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash, ushbu joyga tutash hududni tekshirish, jinoyat izlarini topish, shohidlarni va jinoyat va jinoyatchi haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslarni aniqlashda yordam ko'rsatadi, xizmat-qidiruv itini ishga soladi va h.k. Tergovchi tezkor xodimlar bilan birga to'plangan materiallarni va olib qo'yilgan ashyoviy dalillarni tahlil qiladi hamda kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarni o'tkazishni kelishib olinadi.

Ikkinchi bosqich - tergovning isbotlash bosqichiga kiradi. Bu davrda kechiktirib bo'lmas tergov va tezkor-qidiruv faoliyati faol amalga oshiriladi, keyingi tergov faoliyatining daliliy poydevori yaratiladi. Jinoyat ishini tergov qilishning muvaffaqiyati ushbu bosqichda TQF natijalaridan foydalanish qay darajada samarali tashkil etilganiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Uchinchi bosqich - tergovning ayblov e'lon qilish, ayblanuvchini so'roq qilish, uning vajlarini tekshirish, qo'shimcha dalillar to'plash va tergovning boshqa barcha vazifalarini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan keyingi bosqichi bilan mos keladi. Ushbu bosqichdagi o'zaro aloqaga ko'pincha ayblanuvchining alibisini birgalikda tekshirish, yangi dalillar manbalarini aniqlashda hamkorlik qilish, tergovga qarshi harakatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, ilgari

surilgan tergov tasmollarini tekshirishni yakunlash choralarini ko'rish, shuningdek bajarilgan ishni birgalikda tahlil qilishga xos.

To'rtinchi bosqich – TQF natijalaridan foydalanishning yakunlovchi bosqichi jinoyat ishi bo'yicha tergovni tamomlash bilan bog'liq. Bu davrda tergovchi tergov yakunlarini ko'rib chiqadi va shu jumladan, barcha tasmollar oxirigacha tekshirilganini, jinoyat-protsessual qonunining barcha talablariga rioya etilganini, ayblanuvchining aybi ishonchli dalillar bilan isbotlanganini, ish materiallarida mavjud ziddiyatlar bartaraf etilganini, qonun to'g'ri qo'llanilganini va hokazolarni tekshiradi. Bunda ayrim xulosalarni birgalikda muhokama qilish o'zaro aloqaning muhim shakli hisoblanadi. Aynan shu davrda maxsus kriminalistik xususiyatga ega bo'lgan profilaktika chora-tadbirlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Demak, jinoyatlarni tergov qilishda TQF natijalaridan foydalanish tergovga qadar tekshiruvdan to dastlabki tergov tamomlanishiga qadar davom etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari**» deb nomlangan bo'lib, unda jinoyat ishlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat protsessida foydalanishda shaxs huquqlarini ta'minlash va mazkur institutni yanada takomillashtirish istiqbollari yuzasidan takliflar shakllantirilgan.

Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari bo'lib jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, ochish, shuningdek, ularni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash va fosh etish hisoblanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

- jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab;
- tergov va sud harakatlarini amalga oshirish uchun asos;
- jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining dalillarni to'plash, tekshirish va baxolashni tartibga soluvchi qoidalariga asosan jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish;
- surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, shuningdek, jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan hamda bedarak yo'qolgan shaxslarni qidiruvini amalga oshirish.

Jinoyat ishi bo'yicha isbot qilishda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorda tezkor hujjatlarda mavjud va ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash uchun o'ta zarur bo'lgan ma'lumotlarning jinoyat ishiga aloqadorligi hamda mazkur ma'lumotlarning jinoyat protsessiga kirishida vosita bo'lib xizmat qiluvchi dalil turini tanlash bilan bog'liq masalalarga beriladigan ijobiy javoblarga emas, balki tergov va odil sudlov organlarida isbot qilish jarayonida tegishli dalillarni shakllantirish, tekshirish va baho berish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni taqdim etish bilan bog'liq masalalar ham aks ettirilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ko'pgina mamlakatlarda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga ruxsat berish vazifalari sudlar tomonidan amalga oshirilishidan kelib chiqqan holda «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi qonunning 16-moddasiga bu haqida o'zgartishlar kiritilishi taklif etiladi.

XULOSA

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

Tezkor-qidiruv faoliyati – bu qonun asosida davlat tomonidan fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari hamda qonunda ko'rsatilgan manfaatlarini ta'minlash borasida maxsus vakolat berilgan huquqni muxofaza qiluvchi organlarning ochiq va nooshkora usulda olib boriladigan maxsus faoliyatidir.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalari - tezkor xizmatlar tomonidan olingan va ularning rasmiy (yoki maxfiylik grifiga ega) xujjatlarida aks ettirilgan ma'lumotlar manbaidir.

2. *Tezkor-qidiruv faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra protsessual oshkora va protsessual bo'lmagan nooshkora faoliyatlarning majmuidan iborat faoliyat turi bo'lib, u nafaqat protsessual masalalarni, balki ma'lumot olish, undan foydalanish, protsessual va tezkor-qidiruv xarakteridagi qarorlarni qabul qilishni ham o'z ichiga oladi.*

3. *Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning asosiy mezoni – ular JPKda belgilangan tartibda qonuniylashtirilganidan (to'plash, tekshirish va baholash) keyingina dalil sifatida foydalanilishi mumkinligidir.*

4. Dunyo mamlakatlarida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lgan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan isbotlashda foydalanish bo'yicha xorij tajribasining tahlili O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun xujjalari va normalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

5. *TQF natijalari ularning jinoyat ishini isbotlash jarayoniga qo'shilishi nuqtai nazaridan TQF to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish yoki uning izlarini yashirish to'g'risidagi ma'lumotlari, uni tayyorlayotgan yoki sodir etgan shaxslar to'g'risida JPKda belgilangan tartibda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlariga taqdim etilishi mumkin bo'lsa ma'lumotlar va jinoyat ishiga tegishli boshqa holatlardan iborat.*

6. *TQF natijalarining dalil sifatida foydalanish talablari:*

sub'ektning, axborotni olish uchun asoslar va shartlarning JPK talablariga muvofiqligi;

tayyorlanayotgan, sodir etilgan yoki sodir etilayotgan jinoyat alomatlari, uni tayyorlayotgan yoki sodir etgan shaxslar, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlariga taqdim etilishi mumkinligi, shuningdek jinoyat ishi bo'yicha isbotlash predmetiga kiritilgan boshqa holatlar to'g'risida faktik ma'lumotlarning mavjudligi;

olingan ma'lumotlarni tezkor va rasmiy hujjatlarda, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish jarayonida olingan buyumlar va hujjatlar biriktirilgan moddiy tashuvchilarda mahkamlash.

7. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat-protsessual faoliyatda foydalanishning asosiy usuli - bu TQFning natijalarini shakllantirish, rasmiylashtirish va taqdim etishdir.

8. TQF natijalaridan foydalanishning asosiy bosqichlari: tergovga qadar tekshiruv; isbotlash jarayoni; ayblov e'lon qilish; dastlabki tergovni tamomlash.

9. *TQF natijalaridan foydalanish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:*

- surishtiruvchi va tergovchining yozma topshiriqlari hamda qidiruv va tergov harakatlarini bajarish to'g'risida, ba'zi tergov harakatlarini o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmalari, shu bilan birga ularning yurituidagi jinoyat ishi bo'yicha TQT o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmalari.

- holat bo'yicha unga tergovchi jalb etilgunga qadar tezkor-qidiruv organlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning boshlanishi;

- jinoyatlarni ochish va tergov qilish borasida birgalikda ishlash uchun tergov-tezkor guruhini tuzish. Bunday guruhlarining ayrimlari faqat voqea joyini ko'zdan kechirish va uning natijalari bo'yicha TQTLari o'tkazish bilan bog'liq ishni bajaradi, ayrimlari jinoyat sodir etgan shaxs aniqlangunga qadar ishlaydi, ayrimlari esa ish sudga yuborilgunga qadar tergovni birgalikda yuritadi;

- aniqlangan jinoiy faoliyat to'g'risida ma'lumotlarning tergovchi (prokuror)ga tushishi va jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi masalani hal etishda ushbu materiallarni birgalikda tahlil qilish.

10. *TQF natijalaridan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:*

- o'zaro hamkorlik sub'ektlari o'rtasida birgalikdagi vazifalarni yechish uchun tergov va tezkor-qidiruv ahamiyatiga molik axborotni o'z vaqtida ayirboshlash;

- tezkor-qidiruv organi tomonidan qo'shimcha tergov qilishni talab etadigan jinoyatni qaynoq izlari bo'yicha aniqlash, darhol jinoyat ishi qo'zg'atish va ish bo'yicha surishtiruvni boshlash, ishni tergovchiga o'z vaqtida topshirish (JPK 322-moddasi birinchi qismining 4-bandi) va so'ng ushbu ish bo'yicha birgalikda harakatlarni bajarish;

- ayrim tergov harakatlari va kriminalistik operatsiyalarni bajarishda tergovchiga ko'maklashish;

